

2022-yil 7-dekabr

D.I.Mendeleyev nomidagi RKTUning Toshkent shahridagi filiali talaba qizlari o'rtasida "Vatan mehri yuragimda" ko'rik tanlovi o'tkazildi



Seminar doirasida filial talaba qizlarini oilaga tayyorlash, ularni Vatanga muhabbat, ezgulik, rahmdillik, halollik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va fidoyilik singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, qizlar ongida insoniylik fazilatlarni shakllantirish orqali jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, kattalarga va yosh avlod vakillariga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shib kelayotgan tashabbuskor, shijoatli qizlarni kashf etish, ularni munosib taqdirlash va rag'batlantirish, ijobiy tajribalarni ommalashtirish maqsadida "Vatan mehri yuragimda" ko'rik

tanlovi o'tkazildi. Tanlovda to'rt nafar talaba qiz to'rtta shart asosida bellashdi.

Tanlov quyidagi shartlar asosida o'tkazildi:

- 1-shart. Tarixiy malikalar siymosini yaratish sharti. Mazkur shartda qizlar o'zlarini san'at turlari (milliy raqs, she'r, qo'shiq, xalq o'yinlari)ni qo'llagan holda tanishtirdi.
- 2-shart. "Agar menbo'lganimda!" sharti. Talaba qizlar hokim, rektor, rahbar, vazir, senator va hakoza bo'lganlarida qanday islohotlarni amalga oshirgan bo'lardilar? Taklif va fikrlarini prezentatsiya orqali namoyon qilishdi. Qizlarning yangi g'oyalarining optimalligi va mavzuning dolzarbligiga qarab prizentatsiyalar baholandi.
- 3-shart. "Mevalarni bezash san'ati" sharti. Qizlar mevalarni turli ko'rinishlarda yasatishdi.
- 4-shart. Erkin mavzu. "Vatan mehri yuragimda" madhi. Qizlar Vatanni ulug'lovchi kuy-qo'shiqlar, she'r, monologlar ijro qildi.

Mazkur tanlovning o'tkazilishi, talaba qizlarning keng fikrli hamda tashabbuskorligi seminar ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.



source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rktuning-toshkent-shahridagi-filialida-vatan-mehri-yura-gimda-korik-tanlovi-otkaziladi>